

# Xalq so'zi

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

**2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2025 йил 22 апрель, № 81 (8976) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## FUTBOL BO'YICHA O'N YETTI YOSHGACHA BO'LGAN O'ZBEKISTON TERMA JAMOASI A'ZOLARIGA

Aziz farzandlarim!

O'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida Caudiya Arabistoni maydonlarida bo'lib o'tgan nufuzli musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuksak sovrin – Osiyo kubogini qo'lga kiritganingiz bilan xalqimiz nomidan, o'z nomimdan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlar kabi navqiron, azmu shijoatli yoshlarimizning butun turnir davomida bironta ham mag'lubiyatga uchramasdan, rekord natija ko'rsatib, jonajon Vatanimiz sharafini mardona himoya qilganlari, hech shubhasiz, milliy futbolimiz tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan shonli voqea, desak, to'g'ri bo'ladi.

Ayniqsa, finalda musobaqa mezboni – Saudiya Arabistoni kabi g'oyat kuchli jamoaga qarshi keskin bellashuvda turli bosimlarga qaramasdan, o'n bir o'yinchiga qarshi to'qqiz futbolchi shiddatli kurash olib borganingiz chinakam jasorat va matonat namunasi bo'ldi. Sizlar namoyon etgan yuksak mardlik va mahorat har qanday tahsinga sazovordir.

Musobaqa yakuniga ko'ra uch nafar iste'dodli va mohir sportchimiz yakka tartibdagi sovrinlar egasi bo'lgani, jumladan, Ne'matulloh Rustamjonov – turnirning eng yaxshi darvozaboni, Asilbek Aliyev – eng yaxshi to'purari, Sadriddin Hasanov – eng yaxshi futbolchisi sifatida e'tirof etilganini ham alohida ta'kidlash lozim.

El-yurtimiz sizlarning timsolingizda doimo oldinga intilib yashaydigan, yuksak marralarni zabt etishga qodir Yangi O'zbekiston yoshlarining eng yorqin vakillarini ko'radi va sizlar bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Mamlakatimizda sportga, jumladan, futbol rivojiga berilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy natijasi bo'lgan mana shunday tarixiy g'alaba uchun sizlarga, sizlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onalaringiz va ustoz-murabbiylaringizga chin dildan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Sizlar ushbu g'alabadan ruhlanib, shu yil noyabr oyida Qatarda bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ham Osiyoning g'olib jamoasi sifatida munosib ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Baxt va zafar sizlarga doimo yor bo'lsin, aziz farzandlarim!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## YUKSAK MARRANI ZABT ETGAN YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI



Faxr




*Shu yilning 3 – 20-aprel kunlari Saudiya Arabistoni yashil maydonlarida o'tkazilgan 17 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi musobaqasida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi g'olib chiqib,xalqimizga cheksiz quvonch va xursandchilik olib keldi.*

*Yurtimizda ommaviy sportga,jumladan,futbol rivojiga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli keyingi yillarda qator yutuqlar qo'lga kiritib kelinmoqda. Jumladan,2023-yilda O'zbekistonda uyushtirilgan 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi musobaqasida mahoratli to'pteparlarimiz chempion bo'lishgan edi. O'zbekiston olimpiya terma jamoasi o'zi ishtirok etgan so'nggi ikki turnirda sovrindor bo'lib,2024-yilgi Parij Olimpiadasining futbol musobaqasida ilk bor qatnashdi va tarix sahifalaridan joy oldi.*

➡ 4

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN NAVBATDAGI USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-aprel kuni maktab ta'limi sifatini oshirish hamda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.**

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Bu yilgi davlat dasturida ham maktablarda sharoitlarni yaxshilash, yosh avlodni bilimli etib tarbiyalash bo'yicha ko'plab vazifalar qo'yilgan.

Bu ko'p jihatdan o'qituvchilarning bilim va malakasiga bog'liq. Yurtimizda 15 ta davlat va 61 ta nodavlat oliygohda pedagogika yo'nalishi bor. Lekin ulardagi ilmiy salohiyat atigi 40 foiz atrofida.

Qabullarning katta qismini ijtimoiy yo'nalishlar tashkil etadi. Aniq va tabiiy fanlar bo'yicha pedagoglar tayyorlash juda kam. Talabalarning 40 foizi sirtqi ta'limda o'qiyapti.

Shu bois Toshkent davlat pedagogika universitetini transformatsiya qilib, O'zbekiston milliy pedagogika universitetini tashkil etish, kelajak pedagoglari loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Universitet barcha hududlardagi pedagogika institutlari uchun tayanch oliygoh bo'ladi.

"Yangi O'zbekiston" universitetida 40 dan ziyod chet ellik o'qituvchilar va 30 nafar vatandosh ziyolilarimiz faoliyat yuritmoqda. Talabalar o'zlarining turli yo'nalishlardagi loyihalariga jami 24,3 milliard so'mlik grantlar jalb qilgan. Bu salohiyatdan foydalanib universitetda muhandislik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, tibbiyot kabi zamonaviy sohalarda mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish, yangi laboratoriyalar ochish rejalari taqdimot qilindi.

Shuningdek, oliygohda ilm-fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlash maqsadida Germaniyaning ilg'or tajribasidan foydalangan holda zamonaviy universitet klinikasini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Ta'lim sifatini aniqlashda ham xalqaro uslublar joriy etilmoqda. Bu yil 233 ta maktabdagi 9 ming nafar 15 yoshli o'quvchining bilimi "PISA" xalqaro dasturi orqali baholanadi.

Hozirgi kunda 2 mingta maktab yuqori yuklama bilan ishlayapti. Bu yil byudjet hisobidan 112 mingta yangi o'quvchi o'rni tashkil etiladi. Aholi o'sishi hisobiga, maktablarga ehtiyoj ham ortib boradi. Shu bois Islom taraqqiyot bankidan 200 million dollar jalb etib, hududlarda 58 ta zamonaviy maktab qurish rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra maktab yoshidagi bolalarning 80 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarda faol. Ularni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha muayyan ishlar olib borilyapti. Lekin yoshlar ta'lim-tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, qiziqarli milliy kontentlar yaratayotgan ijodkorlar sanoqli.

Shulardan kelib chiqib bolalarga xavfsiz axborot muhitini yaratish, milliy kontentlarni ko'paytirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## FUTBOL BO'YICHA O'N YETTI YOSHGACHA BO'LGAN O'SMIRLAR O'RTASIDAGI OSIYO KUBOGI O'YINLARI G'OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

O'zining yorqin iste'dodi va professional mahorati, ulkan azmu shijoati hamda mustahkam irodasini namoyon etib, Saudiya Arabistonida futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan nufuzli musobaqada mislsiz jasorat va matonat namunalarini ko'rsatgani, Osiyo kubogini qo'lga kiritib, o'zbek futboli tarixida yangi bir shonli sahifa ochgani, shuningdek, Yangi O'zbekistonning jahon miqyosidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, yosh avlodni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishida faol ishtirok etib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

### «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozi» faxriy unvoni bilan

**Ismoilov Islombek Murodbek o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiysi

### "Kelajak bunyodkori" medali bilan

**Abdukarimov Miraziz Erkin o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Abdullayev Faridjon Nodirjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Abdumo'minov Azizbek Ikromjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Aliyev Asilbek Ravshanjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Baxodirxonov Muminxon Issoxon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Botiraliyev Hojiakbar Xayrullo o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Yerimbetov Azizbek Muxammed Ali uli –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Izbaskanov Baxadir Maxsetbayevich –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Maxmudjonov Dilyorbek Sanjarbek o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Muradov Amirxon Shuxrat o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Musaxanov Muhammadali Alijonovich –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Muhammadov Akbar Alisherovich –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Rustamjonov Ne'matulloh Shuhratjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Rustamov Jamshidbek Abrorjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Saidmurodov Behro'z G'ayrat o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Sarsenbayev Nurbek Raxatovich** – Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Sodiqov Sayfiddin Baxtiyor o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Fazliddinov Abdulloh Zayliddin o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Xakimov Muhammad Ulug'bek o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Xasanov Sadriddin Zayniddin o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Habibullayev Muhammad Qodirjon o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Shokirov Ibroxim Jamshid o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

**Shukurullayev Abubakir Aziz o'g'li –** Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi

### "Shuhrat" medali bilan

**Djurayev Otabek Rustamovich –** O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Sport" ijodiy birlashmasi bosh mutaxassisi

**Tolipov Orifjon Boxodirovich –** O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Sport" ijodiy birlashmasi "Futbol TV" telekanali muharriri

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 21-aprel

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGI HUQUQI KAFOLATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH HAMDA DINIY-MA'RIFIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk alloma va mutafakkirlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga sadoqat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, **yurtimizning jahon sivilizatsiyasi beshigi sifatidagi tarixiy maqomi va nufuzini tiklash** bo'yicha puxta o'ylangan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi. Ushbu muassasalar **"Jaholatga qarshi ma'rifat"** ezgu umuminsoniy g'oyasi asosida jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashga, yoshlarni zamonaviy fikrlaydigan va buyuk ajdodlarimizga har jihatdan munosib etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi murakkab sharoitda dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar mamlakatimizda **"Inson manfaatlari hamma narsadan ustun"** degan xalqchil tamoyilga asoslangan islohotlar to'g'ri ekanligidan dalolat bermoqda.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish, diniy-ma'rifiy sohadagi ezgu g'oya va tashabbuslarni xalq manfaatlaridan kelib chiqib izchil davom ettirish maqsadida qaror qilaman:

**(Davomi 2-betda).**

## INVESTITSIYALAR YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARI YARATISHGA YO'NALTIRILADI

**Davlatimiz rahbariga investitsiya sohasida joriy yil birinchi chorakda qilingan ishlar hamda navbatdagi asosiy vazifalar bo'yicha axborot berildi.**

Davlatimizning faol tashqi siyosati va qulay ishbilarmonlik muhiti natijasida investitsiyalar hajmi izchil o'sib bormoqda. Xususan, joriy yil birinchi chorakda 8 milliard 700 million dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan qariyb 20 foizga o'sdi.

Bu mablag'lar evaziga energetika, metallurgiya, kimyo, farmatsevtika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, kommunal va ijtimoiy sohalarda ko'plab muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunda qo'shilgan qiymat va ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi yarim yillik yakuni bilan 18 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi kutilmoqda.

Umuman, 2025-yilda 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi, 81 ta yirik, 8 mingdan ortiq o'rta va kichik loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mutasaddilarga har bir loyiha bo'yicha manzilli ishlab, barcha vazirlik, hokimlik va tarmoq rahbarlarini jalb qilib, tegishli masalalarni o'z vaqtida hal etib borish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida har bir investor bilan yaqindan ishlab, xorijiy sarmoyalar samaradorligini oshirish zarurligi ta'kidlandi. Eng asosiysi – yangi investitsiya loyihalarini tezroq ishga tushirib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish hamda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish muhimligi qayd etildi.

**O'zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGI HUQUQI KAFOLATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH HAMDA DINIY-MA’RIFIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**I. Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari**

1. Quyidagilar fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta’minlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

a) jamiyatda diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlashga oid ilg‘or mexanizmlarni joriy etish;

b) ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarning insonparvarlik, ezgulik, tinchlik va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy va oliyjanob g‘oyalarga asoslangan diniy-falsafiy merosini chuqur o‘rganish hamda keng targ‘ib etish;

v) diniy-ma’rifiy sohada kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish orqali zamon talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish;

g) aholi orasida birdamlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash;

d) diniy-ma’rifiy sohadagi xalqaro hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish.

2. Diniy-ma’rifiy soha faoliyati rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyatda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik hamda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida **“Bag‘rikeng jamiyat – barqaror davlat”** tamoyili asosida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining yangi hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilsin.

Quyidagilar hamkorlik tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplarini qat’iy amalga oshirishda davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

b) fuqarolarning vijdon erkinligiga bo‘lgan huquqini ta’minlash, jamiyatda turli diniy konfessiyalar vakillarining o‘zaro ahil-inoq va hamjihat hayot kechirishini qo‘llab-quvvatlash;

v) O‘zbekiston aholisining dini, e’tiqodi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar huquq va qonuniy manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olishini ta’minlash;

g) dinga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib ustunlik berish, kamsitish va vijdon erkinligi kafolatlari buzilishining boshqa har qanday ko‘rinishlarining oldini olish.

Qo‘mita bir oy muddatda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda hamkorlik tizimining mexanizmlarini belgilovchi qo‘shma qarorni tasdiqlasin.

**II. Diniy-ma’rifiy sohaning institutsional asoslarini takomillashtirish**

4. Fuqarolarning ibodatlar va diniy rasm-rusumlarni amalga oshirishi uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, “Haj” va “Umra” ziyoratlariga borishi bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida ortiqcha byurokratik tartibotlarni bartaraf etish maqsadida Qo‘mita va Raqamli texnologiyalar vazirligi 2025-yil 1-sentyabrga qadar **“Haj va Umra yagona portali”**ni (keyingi o‘rinlarda – Portal) hamda uning mobil ilovasini ishlab chiqsin.

Belgilansinki:

a) Portal “Haj” tadbirlariga boruvchi fuqarolarning yagona elektron navbati hamda “Umra” tadbirlariga yuboriladigan ziyoratchilarning elektron ro‘yxati shakllantiriladigan tizim hisoblanadi;

b) Portalda “Haj” va “Umra” faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va rasmiylashtirish bilan bog‘liq jarayonlar raqamlashtiriladi;

v) vazirlik va idoralar Qo‘mita so‘roviga ko‘ra o‘zining axborot tizimlari Portalga integratsiya qilinishini ta’minlaydi;

g) Qo‘mita Portal faoliyatini moliyalashtirishga, texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, aloqador davlat va nodavlat tashkilotlar uchun foydalanish imkoniyatini yaratishga mas’ul davlat organi hisoblanadi;

d) Qo‘mita “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish litsenziyasiga ega yuridik shaxslar hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasining Portaldan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi.

5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Qo‘mitaning O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasini **O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) etib qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Akademiya islomshunoslik va dinshunoslik sohalarida mutaxassislarni hamda o‘quv dasturi, qo‘llanma va darsliklarni tayyorlashga ixtisoslashgan tayanch davlat oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilansin.

6. Quyidagilar Akademiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) islomshunoslik, dinshunoslik, din psixologiyasi, islom iqtisodiyoti, manbashunoslik, xalqaro munosabatlar va ehtiyoj mavjud bo‘lgan boshqa sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash;

b) ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, ilm-fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini hamda yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturlarini joriy etish;

v) vijdon erkinligi va konfessiyalararo bag‘rikenglikni ta’minlash, radikallashuv, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining asoslariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

g) diniy-ma’rifiy yo‘nalishda ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, internet tarmog‘ida ta’lim resurslarini joylashtirish va muntazam yangilab borish;

d) talabalarda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayoni hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

ye) mamlakatimizda va xorijda diniy sohada faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish.

7. Akademiyaga quyidagi huquqlar berilsin:

a) o‘quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan yuqori malakali xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilash;

b) Qo‘mita bilan kelishgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo‘lmagan miqdorda belgilash;

v) talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

g) yetuk xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda Akademiya vakillarini xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalariga malaka oshirish va tajriba orttirish uchun yuborish;

d) o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish.

8. Belgilansinki, Akademiyaga o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushadigan mablag‘larning yetishmagan qismi davlat oliy ta’lim muassasalarini saqlash uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida tasdiqlangan byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirish kiritish orqali qoplanadi.

9. Qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazini Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi **Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti** (keyingi o‘rinlarda – Institut) sifatida qayta tashkil etish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilab qo‘yilsinki:

a) Institut islomshunoslik, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari asoslari, shuningdek, radikallashuvning oldini olish yo‘nalishlarida diniy sohada mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga mas’ul muassasa hisoblanadi;

b) barcha ta’lim tashkilotlarining islomshunoslik va dinshunoslik fanlari o‘qituvchilarining malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash Institut tomonidan amalga oshiriladi;

v) ta’lim jarayoni sifatini oshirish hamda ta’lim va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida Institut so‘roviga asosan darslarga tegishli vazirlik, idora, ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlarining rahbar xodimlari va mutaxassislari jalb etiladi;

g) Institut qayta tashkil etilayotgan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuzilgan shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

10. Akademiyaga qarashli Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Zarbuloq ko‘chasi, 14-uy manzili bo‘yicha joylashgan yotoqxona binosi operativ boshqaruv huquqi asosida Institutga bepul o‘tkazilishi ta’minlansin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu binoni saqlash uchun O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasiga 2025-yil uchun ajratilgan byudjet mablag‘larining qoldiq qismini Institutga o‘tkazib bersin, 2026-yildan boshlab esa binoni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni Institutning xarajatlar smetasida rejalashtirib borsin.

11. Qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi hamda Buxoro viloyati hokimligining Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi muassisligida **Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi**ni tashkil etish va quyidagilarni uning asosiy vazifalari etib belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

a) buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik tariqati allomalarining yuksak insonparvarlik g‘oyalarini ilmiy asosda o‘rganish, yosh avlodni bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida targ‘ibot ishlarini olib borish;

b) tasavvuf ta’limoti tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish, “Yetti pir” allomalari va aziz avliyolarning boy ilmiy-ma’naviy merosini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilish;

v) naqshbandiylik ta’limotining ezgu g‘oyalarini tadqiq etish uchun ilmiy-nazariy va uslubiy masalalarga bag‘ishlangan anjuman, konferensiya, ko‘rgazma, seminar-trening, tanlovlar hamda boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;

g) tasavvuf ta’limotining ilmiy asoslangan g‘oyalarini targ‘ib qilish, soxta tariqatchilikning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

12. Qo‘mita va Akademiyaning O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi islomshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni hamda din bilan bog‘liq jarayonlar bo‘yicha tahlillarni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilansin.

13. Quyidagilar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining qo‘shimcha vazifalari etib belgilansin:

a) Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi buyuk alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni o‘rganish, jahon ilm-fani rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, mamlakatimiz hududida ro‘y bergan Birinchi va Ikkinchi Renessansning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy poydevorini yaratishda ishtirok etish;

b) islom dinining insonparvarlik mohiyati, ma’rifiy-madaniy roli va rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganish va keng ommaga, jumladan, xalqaro jamoatchilikka yetkazish;

v) diniy ta’lim muassasalariga ilmiy tadqiqot va o‘quv-uslubiy masalalarda hamda pedagog kadrlar va diniy xodimlarning malakasini oshirib borishda amaliy yordam ko‘rsatish;

g) ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini saqlash, yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish.

14. Diniy-ma’rifiy sohadagi tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirib borish maqsadida doimiy asosda faoliyat ko‘rsatuvchi **Diniy-ma’rifiy sohada ta’lim, fan va ilmiy-tadqiqotga oid faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash** (keyingi o‘rinlarda – Muvofiqlashtiruvchi kengash) tashkil etilsin va uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki:

a) Muvofiqlashtiruvchi kengash diniy-ma’rifiy sohada ta’lim, fan va ilmiy tadqiqot ishlarining barcha jarayonlarini muvofiqlashtirish masalalariga mas’ul bo‘lgan maslahat organi hisoblanadi;

b) Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi vazifasini Qo‘mita amalga oshiradi;

v) Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Akademiya va boshqa diniy-ma’rifiy muassasalarning ta’lim va ilmiy tadqiqotga oid faoliyati muvofiqlashtiriladi;

g) Muvofiqlashtiruvchi kengash majlislari har chorakda kamida bir marotaba o‘tkaziladi.

15. Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) **“Uchinchi renessans – Yangi O‘zbekiston”** g‘oyasi asosida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosida ulug‘langan vatanparvarlik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy g‘oyalarni aholi orasida keng targ‘ib etish yo‘nalishlarini belgilash;

b) diniy-ma’rifiy sohadagi muassasalar faoliyatini chuqur o‘rganib borish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar, innovatsion ishlanmalarni tatbiq etish hamda ilmiy va uslubiy faoliyatini muvofiqlashtirish;

v) soha tashkilotlarida to‘plangan ilmiy-uslubiy ishlanmalar va tajribalarni tahlil etish asosida ulardagi ta’lim mazmunini takomillashtirish va muvofiqlashtirish, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqishda uzviylik tamoyillarini ta’minlash;

g) respublikaning barcha ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bajariladigan diniy mavzudagi tadqiqotlar (dissertatsiyalar)ning mavzu va yo‘nalishlarining ahamiyati, dolzarbligi yuzasidan tegishli tavsiyalarni berish.

**III. Diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash**

16. Respublikada istiqomat qiluvchi turli din vakillarining Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik hissini oshirish, jamiyatda konfessiyalararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash maqsadida Qo‘mitaning **Konfessiyalar ishlari bo‘yicha kengash** (keyingi o‘rinlarda – Kengash) faoliyatini takomillashtirish haqidagi taklifiga rozilik berilsin. Bunda quyidagilar inobatga olinsin:

a) Kengash tarkibiga siyosiy arboblar, jamoatchilik faollari, dinshunos olim va mutaxassislarni kuzatuvchi sifatida kiritish;

b) Kengashga diniy konfessiyalarning muammolari bo‘yicha davlat va nodavlat tashkilotlarga so‘rov, murojaat va tavsiyalar yuborish huquqini berish;

v) Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida hududiy kengashlar tashkil etish;

g) Kengash tomonidan turli konfessiyalarga oid diniy tashkilotlarning professional xizmatchilari o‘rtasida sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish.

Kengashning yangilangan tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**IV. Farmon ijrosini tashkil etish va nazorat qilish**

17. Qo‘mita manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

18. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi S.D.Toshboyev belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 21-aprel

# ASOSIY MAQSAD – QONUN HUJJATLARI IJRO TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining majlisi bo‘lib o‘tdi.*

*Unda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.*

## Senat qo‘mitasida

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish borasida qator muammolar mavjud.

Xususan, ijro hujjati shakllantirilganda sud tomonidan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) yoki yuridik shaxsning soliq to‘lovchi identifikatsiya raqami (STIR) kiritilmayotganligi sababli ularni elektron tarziga o‘tkazish, ular bo‘yicha pul mablag‘larini avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlash va undiruvchiga davlat ijrochisining aralashuvisiz yuborish imkoni mavjud emas.

Shuningdek, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolarning qarzdorliklari uchun undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan eng kam kafolatlangan daromad miqdori belgilanmagan. Ayni qonunchilikni buzganlik uchun mansabdor shaxslarga belgilangan ma’muriy jazolar sodir etilgan qilmishga nisbatan mutanosib emas. Bundan tashqari, davlat ijrochilarida ijro harakatlarini amalga oshirishda mobil videokuzatuv vositalaridan foydalanish huquqining mavjud emasligi ham noxush holatlarga sabab bo‘lmoqda.

Muhokama markazida bo‘lgan qonun yuqoridagi holatlarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan va unga bir qator o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.

Xususan, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunga:

– undiruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va undiruvchi yuridik shaxsning soliq to‘lovchi identifikatsiya raqamini ijro hujjatida ko‘rsatish;

– ijro ishini yuritish doirasida qabul qilingan qarorlar va boshqa hujjatlar ijro ishini yuritishda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslarga ularning O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabineti orqali, shuningdek, yuridik shaxslarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilishi;

– qarzdor jismoniy shaxslarning banklardagi yoki boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida hamda omonatlarida turgan yoki saqlashga qo‘yilgan pul mablag‘lariga undiruv qaratilishi lozim bo‘lganda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yarmiga teng darajadagi pul mablag‘lari hisobga olinishi va bu miqdorga undiruv qaratilmasligi;

– davlat ijrochisining ijro harakatlarini amalga oshirishida qonunchilik hujjatlariga muvofiq mobil videokuzatuv vositalaridan foydalanishini belgilovchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, Fuqarolik va Iqtisodiy protsessual kodekslari hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga sud hujjati asosida beriladigan ijro varaqasi QR-kod bilan tasdiqlangan holda sudyaning elektron raqamli imzosi bilan rasmiylashtirilishi, taraflarning iltimosnomasiga ko‘ra sudning muhri bilan tasdiqlangan holda qog‘oz shaklda berilishi, ijro varaqasi undiruvchi jismoniy shaxslarga ularning O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabineti orqali, undiruvchi yuridik shaxslarga esa soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilishi, undiruvchi jismoniy shaxsning shaxsiy kabineti mavjud bo‘lmasa, ijro varaqasi unga qog‘oz shaklda berilishi bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Qonunning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning $198^{2}$-moddasida ayrim turdagi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun nazarda tutilgan jarimalar miqdori oshirilmoqda.

Majlisda ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasiga sud hamda boshqa organlar hujjatlari ijrosida inson omilini kamaytirishga, majburiy ijro etish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi alohida urg‘ulandi.

Ko‘rib chiqilgan masala bo‘yicha qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH – ONA ZAMINGA MEHR IFODASI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 22-aprel – Butunjahon yer kuniga bag‘ishlangan “Tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish, tuproq tarkibi buzilishining oldini olish” mavzuida seminar o‘tkazildi.*

## 22-aprel – Butunjahon yer kuni

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, universitet professor-o‘qituvchilari, agrar soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, yosh olimlar, fermerlar hamda talabalar ishtirok etdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer resurslari unumdorligini oshirish, ulardan oqilona foydalanish, tuproq degradatsiyasi va eroziyasining oldini olish, qishloq xo‘jaligi yerlari meliorativ holati va suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentimizning tegishli qarorlari hamda “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun sohadagi ishlarni yanada jadallashtirishda muhim huquqiy asos bo‘lmoqda.

Tadbirda tuproq tarkibining buzilishi va uni barqarorlashtirish usullari, agroekologik yondashuvlar asosida hosildorlikni oshirish hamda bioo‘g‘it va organik moddalardan samarali foydalanish usullari to‘g‘risida ma’ruzalar tinglandi.

Respublikamizdagi yer va tuproq ifloslanishining oldini olish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, yerlarni sanoat korxonalari, shuningdek, aholidan chiqadigan maishiy va qattiq chiqindilardan biologik xavfsiz usullarda tozalash, bioremidatsiya va rekultivatsiya yordamida yerlarni qayta ishlashning samarali yo‘llarini ishlab chiqish davr talabi ekani ta’kidlandi.

Seminarda deputatlar tomonidan tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

Yakunda qo‘mita tomonidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Oxirgi besh yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish 30 foiz ko‘payib, 81,5 mlrd. kilovatt-soatga yetdi.**

Senatorlar – hududlarda

## AHOLI SALOMATLIGI VA FAROVONLIGINI TA’MINLASH BORASIDAGI ISHLAR TAHLILI

*Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan tegishli vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda Namangan viloyati mahallalarida sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan samarali foydalanishni tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar holati o‘rganilmoqda.*

Bundan ko‘zlangan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi 245-qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tahlil qilish, xususan, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan hamda hududida sport infratuzilmasi mavjud bo‘lmagan mahallalarda sport maydonchalarining qurilishi, saqlanish holati va ulardan foydalanish samaradorligini joyiga chiqib o‘rganishdir.

Mazkur qaror ijrosi doirasida Namangan viloyatida 2023-2024-yillar davomida 48 ta sport maydonchasi, universal, stritbol-vorkaut hamda vorkaut maydonchalari qurilgan.

Ishchi guruh a’zolari Norin, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Chortoq, Pop, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on, Chust, Mingbuloq, Davlatobod tumanlari hamda Namangan shahrida o‘rganishlar olib bordi va har bir mahalla, ta’lim muassasalarida yoshlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

O‘rganish davomida ayrim sport maydonchalarining foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qolgani, sport obyektlarining atrofi o‘ralmagani, sport anjomlarining yetishmovchiligi, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yetarli sharoitlar yaratilmagani singari kamchiliklar aniqlandi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish hamda aholini sportga keng jalb qilish, mavjud infratuzilmani takomillashtirish va qo‘shimcha qulayliklar yaratish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berildi.

O‘rganish natijalari mahalliy Kengash deputatlari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy boshqarmalari rahbarlari ishtirokida Senat qo‘mitasi majlisida muhokama etiladi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi ishchi guruhi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha Sirdaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar ham o‘rganildi.

Ishchi guruh a’zolari Kasbiy ko‘nikmalar markazi va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi faoliyati bilan yaqindan tanishib o‘quv jarayonlari, ta’lim yo‘nalishlari hamda tinglovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rgandi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni kasbga o‘qitish, ularni faol ijtimoiy hayotga jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Markazga tinglovchilarni o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini aniq belgilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, dars jarayonlarini metodik qo‘llanmalar va ko‘rgazmali vositalar bilan boyitish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Ishchi guruh Yangiyer shahridagi “Muruvvat” ayollar internat-uyida bo‘lib, muassasaning moddiy-texnika bazasi, tibbiy xizmat ko‘rsatish holati va adaptiv sport turlari rivoji bilan tanishdi.

Shuningdek, Guliston va Yangiyer shaharlari hamda Mirzaobod va Guliston tumanlaridagi mahallalarda “mahalla yettiligi” a’zolari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi hamda ijtimoiy daftarlarga kiritilgan, ishsiz va yordamga muhtoj xotin-qizlar holati o‘rganildi. Daromad manbalarini yaratish va qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatish yuzasidan aniq ko‘rsatmalar berildi.

Ushbu o‘rganishlar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

# IJTIMOIY ADOLAT VA TENGLIK TAMOYILLARI KAFOLATI

*Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.*

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Jumladan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi qizg‘in kechdi.

Fraksiya a’zosi Firdavs Qurbonov qonun loyihasining ahamiyati haqida to‘xtalib, uni ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan batafsil ma’lumot berdi.

Deputatning aytishicha, soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida loyihada soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar belgilanmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zosi Saydullo Azimov qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar e’tiborga olingani va hujjat matnida aks ettirilganini aytdi.

Shuningdek, u Jinoyat-protsessual kodeksining 41-moddasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollarni o‘rtaga tashladi. Qonun tashabbuskorlari berilgan savollar yuzasidan batafsil tushuntirish berib o‘tdi.

Deputat Umid Yakubxo‘jayev esa Soliq kodeksining 212-moddasiga kiritilayotgan uchinchi qism bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Qonun tashabbuskorlari ko‘tarilgan savollar yuzasidan tushuntirishlar berdi. Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilishda “Agrosanoat sohasida yangi bozor mexanizmlarining joriy etilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama markazida bo‘ldi.

U bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi subyektlar, issiqxona xo‘jaliklari hamda o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida berilgan arizalar, shikoyatlar va da’volar yuzasidan davlat bojini to‘lashdan ozod etilishi belgilanmoqda.

Deputatlar loyihada nazarda tutilayotgan normalar aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash, intensiv usulda bog‘ va tokzorlar yaratish, issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga xizmat qilishini ta’kidlashdi.

**O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Bugun mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga kirishga tayyorgarlik ko‘rayotganini e’tiborga olsak, qonunlarimizni JSTning tariflar va savdo bo‘yicha Bosh Bitimi qoidalariga uyg‘unlashtirish orqali tashqi savdoni yanada liberallashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

***“Milliy tiklanish” DP fraksiyasi a’zolari qonun loyihasi bilan rieltorlik faoliyatining “soya”dan chiqishini rag‘batlantirish chora-tadbirlari belgilanayotganini qo‘llab-quvvatlagan holda, aksariyat davlatlarda fuqarolar uy-joyini faqat rieltorlik xizmati orqali sotish majburiyati belgilanganini, loyihada esa bu masala qanday hal qilinayotgani bilan qiziqdi.***

Ushbu qonun loyihasi bilan milliy qonunchiligimiz xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilyapti. Jumladan, savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko‘p qulaylik berish rejimi (MFN) joriy qilinmoqda. Chunki Bojxona kodeksiga asosan savdo-iqtisodiy munosabatlarda MFN nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan amaldagi import bojlari stavkalarining 2 baravari qo‘llanilishi belgilangan.

Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan esa 2025-yil 1-yanvarga qadar tovarlarga nisbatan import bojxona bojining 2 barobar stavkasini qo‘llash amaliyoti vaqtinchalik to‘xtatilgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonning tashqi savdo yo‘nalishidagi ikki va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalari asosida 10 ta mamlakat bilan erkin savdo rejimi, 47 ta davlat bilan esa MFN amal qiladi. JST talabiga ko‘ra unga a’zo mamlakatlarning barchasi bilan MFN qo‘llash prinsipi talab etiladi.

Aytilganidek, ushbu hujjat qonunlarimizni JST qoidalariga muvofiqlashtirishga, natijada esa iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yig‘ilishda “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Loyiha bilan rieltorlik, ya’ni “makler”lar faoliyatini tartibga solish va bu yo‘nalishda aholiga sifatli hamda ishonchli xizmat ko‘rsatish nazarda tutilmoqda.

Fraksiya a’zolari loyiha bilan ushbu faoliyatning “soya”dan chiqishini rag‘batlantirish chora-tadbirlari belgilanayotganini qo‘llab-quvvatlagan holda, aksariyat davlatlarda fuqarolar uy-joyini faqat rieltorlik xizmati orqali sotish majburiyati belgilangani, qonun loyihasida bu masala qanday hal qilinayotgani bilan qiziqdi. Boshqa deputatlar esa mazkur hujjatning ishlab ketishiga shubha borligini, ayrim normalar qaysidir tabaqaning boyishi uchun huquqiy asos yaratayotgandek xulosani berayotganini ta’kidlab, bu haqda qonun tashabbuskorlaridan izoh so‘rashdi.



Mas’ullar bular haqida atroflicha javob berib o‘tgandan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab shu yil 18-aprel kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan fikr almashildi.

Fraksiya a’zolari mazkur vazifalarni amalga oshirishda parlament rolini kuchaytirish, qabul qilinayotgan qonunlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini ro‘yobga chiqarish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Davlat rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida hamda samarali ta’minlashda partiya va uning fraksiyasi faol bo‘lishi kerakligi qayd etildi.

Yig‘ilishda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Loyiha bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda uning hududiy bo‘linmalariga xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish yo‘nalishida aniq vakolatlar berilmoqda. Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlari fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga murojaat etganda, yo‘qotilgan biometrik pasport, tug‘ilganlik yoki nikoh to‘g‘risidagi guvohnomalarni takroran olish uchun davlat boji to‘lashdan ozod qilinishi taklif etilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Deputat Behzod To‘xtamurodov fuqarolarning bank kartasi bilan bog‘liq ayrim masalalarga to‘xtalib, unga oid ma’lumotlar faqatgina fuqaroning o‘ziga ma’lum qilinishi zaruratini inobatga olgan holda, jarayonga inson omili qo‘shilishi ehtimoliy korrupsion holatlarga olib kelishi mumkinligini ta’kidladi. Loyihada bu bo‘yicha taklif etilayotgan normani qayta ko‘rib chiqish kerakligini bildirdi.

Qonun tashabbuskorlari mazkur masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib, aytilgan mulohazalar atroflicha o‘rganib chiqilishini bildirdi.

Yig‘ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab, ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Fraksiya a’zosi Odiljon Iminov uning zarurati haqida to‘xtalib, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ijtimoiy xizmat va yordamlarni ko‘rsatishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib-taomillarni bajarmaslik holatlari uchrab turgani, bu borada huquqiy chora belgilanishi muhimligini aytdi.

Deputat Imomnazar Tursunov ham hamkasbining fikrini davom ettirib, ijtimoiy himoya tizimi xodimlari faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonuniy talablarini bajarmaslik uchun javobgarlikni kuchaytirish lozimligini bildirdi.

***O‘zXDP fraksiyasi a’zolari Ijtimoiy himoya milliy agentligi mutasaddilariga zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish bilan birga bunga sababchi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashga ham alohida e’tibor qaratish kerakligi bo‘yicha qo‘shimcha taklif berishdi.***

Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Fraksiya yig‘ilishida tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi. Xususan, deputat Iba Narizova tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordam turlarini qonun hujjatlarida aniqlashtirish zaruratini qayd etib, xotin-qizlar, bolalar himoyasi muhim ijtimoiy munosabatlar ekanligini ta’kidladi.

Fraksiya a’zosi Qizilgul Qosimova Ijtimoiy himoya milliy agentligi mutasaddilariga zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish bilan birga bunga sababchi bo‘lgan shaxslar bilan ishlashga ham alohida e’tibor qaratish kerakligi bo‘yicha qo‘shimcha taklif berdi.

Deputatlar qonun loyihalarida belgilanayotgan me’yorlarni qo‘llab-quvvatlagan holda, ularni keng jamoatchilik orasida faol targ‘ib qilish zarurligini alohida ta’kidlashdi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etishda vakolatli ijro hokimiyati organlarining aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan hamda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlardan muhofaza qilish bo‘yicha vazifalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararni baholash va qoplashning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, loyiha orqali Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid asosiy vazifalari belgilanmoqda.

Fraksiya a’zolari tomonidan qonun loyihasi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza etish bo‘yicha munosabatlarni yanada tartibga solishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Shuningdek, yig‘ilishda, meva-sabzavot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi subyektlar hamda Agrosanoatni rivojlantirish agentligining qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Tashabbuskorlarning qayd etishicha, agentlikning sudlarga murojaat qilish uchun belgilangan davlat bojini to‘lashdan ozod etilishi davlat boji to‘lovidan tejalgan mablag‘larni tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirish orqali tadbirkorlik subyektlari va boshqa yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlari ishonchli himoyasi huquqiy choralarini kuchaytirishga, ularning faoliyatida ortiqcha xarajatlarning oldini olishga va qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan o‘z taklif va tavsiyalarini bildirdi hamda muhokama so‘ngida qonun loyihasi konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

# ZIYOLILIK – MANSABMI, MARTABAMI, MAS’ULIYATMI?



*Dunyo uzra hukm surayotgan globallashuv ming yillik qadriyatlar, tamoyillar, talablar mazmun-mohiyatini, maqsadini, muddaosini o‘zgartirib yubormoqda, ayovsiz o‘z domiga tortmoqda. Bu jarayonlar asta-sekinlik bilan, zamonaviy axborot texnologiyalari ko‘magida goho ochiqcha, goho yashirin amalga oshirilmoqda.*

## Bedor o‘ylar

“Buning nimasi ajablanarli?” demoqchi bo‘lganlarga shoshilmaslikni maslahat berardim.

Unutmasligimiz kerakki, qadriyatlarning yo‘qolib borishi zamirida millatni o‘zligidan uzoqlashtirishday yovuz maqsad yotibdi. Bu o‘rinda “yotibdi” so‘zini biz shartli ravishda qo‘llayapmiz. Aslida, u yotgani yo‘q, allaqachon o‘rnidan turgan. Yuryapti, hatto yuguryapti.

Bir paytlar “ziyoli” so‘zining salmog‘i juda baland edi. Bu so‘z tarozida og‘ir kelardi, tosh bosardi – mas’uliyati bor edi.

Mening nazarimda, jamiyatda ziyolidan baland qatlam bo‘lmasdi. “Ziyoli inson”, “ziyoli oilada tug‘ilgan”, “ziyolilar avlodidan”, “yetti pushti ziyoli bo‘lgan”... degan iboralar chuqur hurmat bilan, ehtirom ila, e’tirof sifatida ishlatilar edi. Jamiyat a’zolarining hurmat qiladigan qatlami ham ziyolilar edi.

Ziyolilar to‘rga chiqarilar, ziyolilarga birinchi bo‘lib salom berilar, ziyolilar bilan ko‘rishishga intilishar, ziyolilar bilan muloqotga kirishish, aloqa o‘rnatish, yaqin munosabatda bo‘lish katta baxt hisoblanardi.

Bugun biz targ‘ibot qilayotgan, merosini o‘rganayotgan jadidlarimiz ham avvalo, ziyolilar qatlami, ziyolilar sinfi edi. Ular bundan bir asrdan ko‘proq vaqt avval aytgan fikrlar, ilgari surgan g‘oyalar nima uchun bugungi kunlarimizda ham dolzarb? O‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlarni dor ostiga yetaklagan ham aslida mana shu o‘lmas fikrlar emasmidi? Ziyoli bo‘lishning mas’uliyati qanchalar ulkanligini his etyapmizmi?

Ziyoli deganda, yaqin vaqtlargacha ko‘z o‘ngimizda davlat namoyandalari, o‘qituvchi, professor, shoir, yozuvchi, jurnalist, olim, madaniyat va san’at fidoyilari namoyon bo‘lardi. Ming afsuski, bugun biz yuqorida ta’kidlagan kasblar mavjudu ammo ziyolilarimiz safi tobora qisqarib, siyraklashib borayotganday...

Globallashuv, qolaversa, bozor iqtisodiyoti ziyolilarni egallab turgan “istehkomlari”dan ortga chekinishga majbur qildi. Buning oqibatida ziyolilarimiz nima yo‘qotganligini bilmadimu jamiyat, millat ko‘p narsani yo‘qotdi va bu yo‘qotish hali-hamon davom etmoqda.

Ziyolilar qatlami jamiyatga nima uchun kerak?

Ziyo bu havomas, bu non ham emas, qorinni to‘ydirmaydi. ***Ziyo – bu tafakkur. Ziyo – bu ma’rifat. Ziyo – bu ma’naviyat. Endi mana shu tamoyillarsiz qolgan jamiyatning ahvolini tasavvur qilavering…***

Hatto o‘ylash xavotirli. Oqibati esa o‘ta xavfli.

***Ziyolining ikki qanoti bor. Biri ma’rifatparvarlik, ikkinchisi vatanparvarlikdir.*** Biz hayot tashvishlariga o‘ralashib qolish natijasida mana shu muqaddas tuyg‘ularni yo‘qotib qo‘ymadikmi? Unutib qo‘ymadikmi? Ziyoli ajdodlarimizning buyuk maslagi bo‘lgan millatparvarlikdan uzoqlashmadikmi?

Ziyolilikning talablarini, mas’uliyatlarini his etsak, u qanchalik zalvarli, mashaqqatli nom ekanligiga iymon keltiramiz. ***Millat qachon yuksaladi? Ziyolisi uyg‘oq, fidoyi bo‘lsa. Ziyolisi beparvo bo‘lmasa. Millat o‘shanda yuksaladi, taraqqiy etadi.***

Maktab muallimi o‘zini ziyoli deb hisoblasa, millat bolalariga vijdonan bilim, to‘g‘ri tarbiya beradi. Bolaligidayoq ong-tafakkurini ochadi. Ilm o‘rgatadi. Mabodo buning teskarisi bo‘lsa-chi? O‘zingiz ayting, bunday o‘qituvchini ziyoli deb bo‘ladimi?

Universitet professori talabalarni yaxshi o‘qitmasa, o‘zi mansub bo‘lgan fandan maktab yaratmasa, shogirdlar tayyorlamasa, bunday domlani vatanparvar deb bo‘ladimi? Bugun mana shu talablarni mamlakatning ziyoli qatlami oldiga qo‘yish vaqti kelmadimi?

Muallimlarimiz, domlalarimiz qanday mas’uliyat oldida turganliklarini bilishadimi? Faqatgina, o‘z manfaatimiz doirasida harakatlanayotganligimizdan tonamizmi? “Manfaatlar to‘qnashuvi” degan tushunchani juda tor ma’noda anglamayapmizmi?

Garchi achchiq bo‘lsa ham, bir haqiqatni aytmoqchiman. ***Fan nomzodi, fan doktori, dotsent, professor bo‘lish degani, bu olimlik yoki ziyolilik emas. Haqiqiy olim, ziyoli, avvalo, millat va mamlakat g‘ami bilan yashaydi. Vatani, millati, taqdiri uchun kuyunadi. O‘z manfaatini Vatani, millati, manfaatidan ustun qo‘ymaydi. Bu kabi fazilatga ega bo‘lgan shaxslarni olim, ziyoli, deb atasa bo‘ladi.***

Bir olim millatni, mamlakatni mashhur qila oladi. Qachonki, u to‘la ma’nodagi ziyoli bo‘lsa. Vatanparvar bo‘lmagan o‘qituvchi, professor, tarbiyachi aslida jamiyat uchun juda katta xavf-xatar. Chunki o‘zi vatanparvar bo‘lmagan tarbiyachi, professor-o‘qituvchi jamiyatga vatanparvarlik hissidan yiroqlarni yetishtirib beradi. Buning oqibati esa ayanchli bo‘ladi. Eng avvalo, bu – millat ozodligi, mamlakat mustaqilligi uchun tahdid, tahlika. Buning oqibatini o‘ylashning o‘zi dahshat.

Vatanparvarlarsiz Vatanni, millatparvarsiz millatni, ziyolilarsiz xalqning kelajagini bashorat qilishning o‘zi qo‘rqinchli.

Ziyoli vatanparvar bo‘lmasa, ziyoliman deyishga haqi yo‘q. Bu maqomni, martabani ko‘tarish uchun, avvalo, ziyolining yuragida Vatan bo‘lishi kerak.

Jadidlar haqida o‘ylaganimda hayratim oshib boraveradi. Jadidlar o‘z mablag‘lari hisobidan maktab ochgan, teatr tashkil qilgan. Gazeta, jurnal, kitoblar chop etgan. Bosmaxonalar olib kelgan. Yoshlarni xorijga yuborib o‘qitgan. Ustiga-ustak, ular bu ishlarni katta qarama-qarshilik ichida amalga oshirgan. Bu yo‘lda nafaqat molini, balki jonini ham tikkan.

Jadidlar otasi hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiy maktab o‘quvchilari uchun turli fanlardan qator darsliklar yaratgan. “Aholi geografiyasiga kirish”, “Qisqacha umumiy geografiya” kabi darsliklari bizgacha yetib kelgani va o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotmagani fikrimiz dalili bo‘la oladi.

Behbudiy nima uchun bu ishga jazm qilgan? Buning sababi kunday ravshan. Maktablar uchun darsliklar yo‘q bo‘lgani yoki borlari ham zamon talablariga javob bermagani uchun bu mashaqqatni o‘z zimmasiga olgan.

Biz-chi? Bugun biz nima qilyapmiz? Davlat qurib bergan maktabda, davlat bergan maoshni olib, xalqning bolasini yaxshi o‘qitmasak, oliy maktabda mutaxassislar emas, nomigagina diplomlilarni tayyorlasak. Bolalarimizning umrini, vaqtini behuda o‘tkazsak insofdan bo‘ladimi?

Insof bilan aytganda, professor-o‘qituvchi olayotgan oylik maosh 2016-yildan keyin kamida o‘n barobar oshirildi. O‘qituvchi, domlaning bo‘ynidagi bo‘yinturuq bo‘lgan majburiy mehnatga butunlay barham berildi. Ilm o‘rganishga, ilm o‘rgatishga barcha imkoniyat yaratildi. O‘zbekistonning eshiklari dunyoga, dunyo darvozalari O‘zbekistonga butunlay ochildi. Zamonaviy laboratoriyalar, texnologiyalar muhayyo qilindi...

Prezident va davlat yana nima qilib berishi kerak bizga? Qachon ziyolining bosh maqsadi, burchi bo‘lgan ma’rifatparvar, vatanparvar bo‘lamiz?

Tabiiy boyliklar qanchalik ko‘p, mamlakat hududi cheksiz bo‘lsa-da, ziyoli uyg‘oq bo‘lmasa, mas’uliyatni his etmasa, hammasi bekor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ziyolining qadrini, qaddini tiklash uchun jon-jahdi bilan harakat qilyapti. Ziyolining hurmatini, mavqeini mustahkamlash bosh maqsadga aylangan. Lekin ziyoli qatlamning o‘zi-chi, buni his etyapmizmi?

Mamlakat va millat oldidagi vazifalarimizni anglaymizmi? Prezident va davlat bizga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rlikka javob beryapmizmi? Zimmamizda juda katta yuk borligini yurakdan sezyapmizmi? Bugun zo‘r berib gapirayotgan jadidlarimizga munosibmizmi? Yoshlarimizga o‘rnak bo‘lyapmizmi? Vatanparvarlik degan bir ilmni farzandlarimizning ongiga singdiryapmizmi? Talab qilish bilan birga fidoyimizmi? Vijdonimiz oldida javob bera olamizmi? Ajdodlarimiz oldida-chi? Kelgusi avlodlar oldida-chi?

Millatning ma’rifatli, madaniyatli bo‘lishi yo‘lida eng fidoyi insonlar ziyolilar bo‘lishi shart. Faqat “ziyoliman” deyishning o‘zi yetarli emas. Sizning ziyoli ekanligingizni jamiyat his qilishi, jamoatchilik tan olishi, e’tirof etishi kerak.

Bugun davlatimiz rahbari, millat va mamlakat ziyolilarining uyg‘onishiga, ziyolilar qatlamining shakllanishiga, bilimi va qudratiga, fidoyiligiga, ma’rifatparvarligiga, millatparvarligiga, o‘z burchini chuqur anglashiga har qachongidan-da ko‘proq muhtoj.

Mustaqilligimizning barqarorligi, mamlakatimizning taraqqiyoti, millatimizning birdamligi yo‘lida ziyolilar oldingi saflarda bo‘lishi kerak.

**Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi,
Oliy Majlis Senati a’zosi.**

**Ayni paytda yurtimiz hududlarida “Ta’lim va kasb – 2025” XXVII xalqaro ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda.**

# YUKSAK MARRANI ZABT ETGAN YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI




1 Endi bevosita Saudiyada o'tkazilgan musobaqaga to'xtalsak, Islombek Ismoilov murabbiyligidagi yosh futbolchilarimiz finalgacha bo'lgan 5 ta uchrashuvda ishonchli g'alabalarni qo'lga kiritib keldi. "A" guruhida o'yinlarni boshlagan vakillarimiz Tailand (4:1), Xitoy (2:1) va mezbon Saudiya Arabistoni (3:0) o'smirlarini mag'lub etishning uddasidan chiqdi. Chorak finalda Birlashgan Arab Amirliklari futbolchilari 3:1 hisobida dog'da qoldirildi. Yarimfinalda turnirning eng kuchli jamoalaridan biri Shimoliy koreyaliklar bilan 3:0 natijasi qayd etildi. Finalgacha 100 foizlik natija ko'rsatgan futbolchilarimiz turnir g'olibligiga munosib da'vogar ekanini isbotlashdi.

Asosiy bahsda O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi musobaqa mezboni – Saudiya Arabistoniga qarshi saf tortdi. Tengkurashlar ostida o'tgan dastlabki bo'limda uchrashuvni boshqarib borgan qatarlik hakam Muhammad Ahmad Al-Shammari ikki futbolchimiz – Nurbek Sarsenbayev va Miraziz Abdukarimovga qizil kartochka ko'rsatdi. Birinchi bo'lim jamoamiz uchun shu tariqa omadsiz yakunlandi.

Ikkinchi bo'lim esa ikki kishi kam bo'lib qolgan hamyurtlarimiz ustunligida boshlandi. 50-daqiqada o'z jarima maydonchasi ichida to'p saudiyalik himoyachining qo'liga tegdi. Ushbu holatni VAR orqali tekshirgan bosh hakam raqiblar darvozasiga penalti belgiladi. 11 metrlik zarbadan Muhammad Hakimov unumli foydalandi va o'yindagi hisobni ochdi. Uchrashuvning 70-daqiqasida futbolchimiz Sadriddin Hasanov g'alabani mustahkamlovchi gol muallifiga aylandi. Shu tariqa maydonda 11 nafar saudiyalik futbolchiga qarshi 9 nafar bo'lib maydonda harakat qilayotgan vakillarimiz 2:0 hisobida oldinga chiqib oldi. Bellashuvning qolgan vaqti davomida mezbonlar qanchalik hujum qilishga urinmasin, himoyachilarimiz va darvozabonning ishonchli harakatlari evaziga golli vaziyatlar yarata olishmadi. Yosh hamyurtlarimiz oson o'tmagan qarama-qarshilikda zafar quchdi va musobaqa chempioni bo'ldi. Qo'lga kiritilgan g'alaba, shubhasiz, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor – iqtidorli yigit-qizlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sportni rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli sa'y-harakatlarning yuksak natijasidir.




Yunus BO'RIYEV olgan suratlar.

Osiyo kubogi yakuniga ko'ra uch nafar iste'dodli sportchimizga yakka tartibdagi sovrinlar topshirildi. Jumladan, Ne'matulloh Rustamjonov – turnirning eng yaxshi darvozaboni, Asilbek Aliyev – eng yaxshi to'purar, Sadriddin Hasanov – eng yaxshi futbolchi sifatida e'tirof etildi.

Mazkur g'alabadan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev futbol bo'yicha o'smirlar terma jamoasiga samimiy tabrik yo'lladi. "Sizlar kabi navqiron, azmu shijoatli yoshlarimizning butun turnir davomida bironta ham mag'lubiyatga uchramasdan, rekord natija ko'rsatib, jonajon Vatanimiz sharafini mardona himoya qilganlari, hech shubhasiz, milliy futbolimiz tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan shonli voqea, desak, to'g'ri bo'ladi", deyiladi davlatimiz rahbari tabrigida. Shuningdek, "Futbol bo'yicha o'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo kubogi o'yinlari g'oliblari va ishtirokchilarini mukofotlash to'g'risida"gi Prezident Farmoniga binoan murabbiy Islombek Ismoilov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozi" faxriy unvoni, o'smirlar terma jamoasining har bir futbolchisi "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.

Muzaffar futbolchilarimiz Toshkent aeroportida tantanali tarzda kutib olindi. Tadbirda sport jamoatchiligi, futbolchilarning ota-onalari va yaqinlari hamda muxlislar ishtirok etdi. Bayramona o'tgan tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning futbolchilarimizga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departamenti rahbari O. Abdurahmonov Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan sportchilar va ularning murabbiyi, futbol targ'iboti yo'lida fidoyilik ko'rsatib kelayotgan sport sharhlovchilari davlatimizning yuksak mukofotlari – "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozi" faxriy unvoni, "Kelajak bunyodkori" va "Shuhrat" medallari bilan taqdirlanganini e'lon qildi. Shuningdek, Prezident sovg'asi – yengil avtomobillar kalitlari va davlat mukofotlari tantanali topshirildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi sport vaziri A. Ikromov, Milliy olimpiya qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari O. Umarov, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi prezidenti B. Qurbonov, Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa'dullayev, Toshkent shahar hokimi Sh. Umurzakov va boshqa mutasaddilar ishtirok etdi.

Eslatib o'tamiz, o'smirlar terma jamoasi joriy yilning 3 – 27-noyabr kunlari Qatar maydonlarida o'tkaziladigan jahon chempionatida (U17) qatnashib, mamlakatimiz sharafini himoya qiladi.

**Sunnatilla ISLOMOV**
**("Xalq so'zi").**

# YOSH «OQ BO'RILAR» OSIYODA TENGSIZ EKANINI ISBOTLADI

## O'ZBEKISTON O'SMIRLAR TERMA JAMOASINING CHEMPIONLIGI XORIJ NASHRLARI NIGOHIDA

*O'zbekiston "U-17" terma jamoasi Osiyo kubogi musobaqasi final uchrashuvida musobaqa mezboni – Saudiya Arabistoni terma jamoasi ustidan 2:0 hisobida g'alaba qozonib, turnir chempionligini qo'lga kiritgach, bir qancha xorij nashrlarida terma jamoamizning nafaqat final, balki butun turnir davomidagi o'yinlari haqida ijobiy fikrlar bildirilgan xabarlar tarqatildi.*

### E'tirof

Jumladan, FIFA o'zining rasmiy saytida O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining Osiyo chempionligini qo'lga kiritganini e'tirof etdi.

"OFK "U-17" Osiyo kubogi musobaqasi juda dramatik tarzda yakunlandi. 9 nafar futbolchi bilan qolgan O'zbekiston Saudiya Arabistonini mag'lub etib, ikkinchi marta qit'a chempioniga aylandi. Ajablanarlisi shundaki, yosh "oq bo'rilar" jamoasi birinchi bo'lim oxirida ikkita qizil kartochka sabab 9 kishi bo'lib qoldi. Ammo bu holat jamoaning ruhini sindira olmadi hamda yakunda chempionlikka erishdi. Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi so'nggi sakkiz qit'a chempionatining yettisida kamida chorak finalga chiqqan va 2023-yilda Indoneziyada o'tkazilgan "U-17" jahon chempionatida ham shunday natija qayd etgan edi", deyiladi **FIFA rasmiy sayti**da e'lon qilingan xabarda.

Shuningdek, Osiyo Futbol konfederatsiyasi prezidenti Shayx Salmon bin Ibrohim Al-Xalifa ham O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining Osiyo kubogi musobaqasida g'oliblikni qo'lga kiritgani munosabati bilan O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi prezidenti Bahodir Qurbonov nomiga tabrik yo'lladi.

"Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan 17 yoshgacha futbolchilar o'rtasidagi Osiyo kubogi musobaqasida g'oliblikni qo'lga kiritganingiz bilan sizni va butun o'zbekistonliklarni chin qalbimdan tabriklashdan mamnunman. O'zbekistonning musobaqa davomida ko'rsatgan ajoyib o'yinlari yurtingizda futbolni rivojlantirish va ommalashtirish yo'lida amalga oshirilgan mehnat va sa'y-harakatlardan dalolatdir.

Bosh murabbiy Islom Ismoilov va butun jamoaga turnir davomida namoyish etgan yorqin o'yinlari uchun minnatdorlik bildiraman va FIFA "U-17" jahon chempionatida ham muvaffaqiyat tilayman. O'zbekiston futbol jamoatchiligiga esa kelgusi faoliyatida zafarlar tilayman", deyiladi **OFK prezidenti**ning tabrigida.

MDH davlatlarining sport sohasidagi yangiliklarini yoritib boruvchi **"Sports.tj" nashri** vakili o'zining "Facebook"dagi sahifasida jamoamiz futbolchilarining xursandchiligi aks etgan videolavhani ulashdi.

"Maydondagi qancha qiyinchilik hamda omadsizliklarga qaramay, o'zbek futbolchilari irodali g'alabaga erishdi. O'zbekistonlik yosh futbolchilar haqiqatda chempionlikka munosib", deyiladi xabarda.

Saudiya Arabistonining **"Arab News" nashri**da final bahsida o'zbekistonlik futbolchilarning ikki kishi kam bo'lib ham g'alabaga erishgani haqida xabar berildi.

"Yakshanba kuni "U-17" Osiyo kubogi musobaqasi finalida Saudiya Arabistoni O'zbekistonga 2:0 hisobida mag'lub bo'ldi. Birinchi bo'limda g'oliblar safida ikki futbolchi qizil kartochka oldi. Yigitlar iroda namoyish etib, kutilmagan tarzda ikkinchi bo'limda ikkita gol urishga muvaffaq bo'ldi hamda 2012-yildagi kabi ikkinchi bora qit'a birinchiligida g'olib bo'lishdi.

Chorak finalda Yaponiyani, yarimfinalda Janubiy Koreyani ortda qoldirgan mezbonlar uchun haqiqiy sinov final bahsida sodir bo'ldi. Balki mezbon futbolchilarda qiyin jamoalarga qarshi o'ynagani uchun biroz charchoq bo'lgandir. Bu unchalik muhim emasdi, chunki birinchi bo'lim tugashi arafasida O'zbekiston terma jamoasining ikki futbolchisi maydondan chetlatilgandi. Bu holat mezbonlar uchun qulay imkoniyat yaratgandi.

Tanaffus vaqtida Saudiya Arabistoni futbolchilari g'alabaga erishadigandek tuyuldi. Ikkinchi bo'lim aql bovar qilmaydigan darajada tus oldi. O'zbekistonliklar bo'lim boshidanoq hujumga o'tib, qiyin vaziyatdan chiqish uchun imkoniyatlar yarata olishdi.

Saudiya Arabistoni vakillari maydonda ustunlikka erishish uchun barcha ishni qilishdi, ammo yakunda o'zbekistonliklarning ishonchli himoyasidan o'tish yo'lini topa olishmadi. Mezbonlar uchun imkoniyat bor, chunki ular shu yil oxirida Qatarda bo'lib o'tadigan "U-17" jahon chempionatida ishtirok etadi", deb yoziladi xabarda.

Qozog'istonning **"Nur.kz" nashri**da ham O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining Osiyo kubogi musobaqasidagi ishtiroki haqida xabar chop etildi.

"O'zbekistonlik yosh futbolchilar boshqa tengdosh raqiblaridan ustun ekanini isbotlashdi. Birinchi bo'limdayoq ikki kishi kam bo'lib qolgan terma jamoa vakillari ikkinchi bo'limda umuman o'zgacha o'yin namoyish etdi. O'zbekiston terma jamoasi o'z tarixida ikkinchi marta o'smirlar o'rtasidagi Osiyo kubogini qo'lga kiritdi", deb yozgan nashr muxbiri.

**Otabek SAIDAHMADOV**
**("Xalq so'zi") tayyorladi.**

### Da'vat

# MURABBIYNING DEGANLARI

*Futbol bo'yicha 17 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi finalda mezbonlar – Saudiya Arabistoni yoshlariga qarshi to'p tepdi. O'yinning birinchi bo'limidayoq hakamlar bizning ikki nafar futbolchimizni maydondan chetlatdi. O'n besh daqiqalik tanaffusga yoshlarimiz ruhiy og'riq bilan chiqdi. Biroq shunday o'ta murakkab pallada bosh murabbiy Islombek Ismoilov barcha yukni o'ziga olib, bolalarni uyg'otuvchi so'zlar aytdi.*

***Shikoyat befoyda – bo'ldi bo'lar ish,***
***Bu yog'iga bardam turmoqlik kerak.***
***Sizlarga yoqmasa mabodo kumush –***
***Gol o'tkazishmas, gol urmoqlik kerak!***

***"To'qqiz kishimiz", deb siqilmang zinhor,***
***O'qing "Tarix" degan kitobni bir-bir.***
***O'n ikki ming qo'shin bilan ulug'vor***
***Yuz ming askarni yer tishlatgan Bobur!***

***Hamon to'p yumaloq – tekisdir maydon,***
***Shubhasiz, bittangiz o'nga tatiysiz!***
***Dars berib qo'ying arabga, zotan –***
***Har biringiz bitta Zamaxshariysiz!***

***Qoningizda jo'shar ko'hna jasorat,***
***Intilgan insonga tole ham yordir.***
***Uddalab bo'lmasdek ko'rinar garchand –***
***O'limdan boshqasin iloji bordir.***

***Bizga qadalgandir dunyoning ko'zi,***
***O'ynang o'zni bosib, jilmayib-kulib...***
***Shunday zafar quching – raqibning o'zi***
***Sizni tabriklasin birinchi bo'lib!***

***Ey, millat ko'ksida ungan lolalar,***
***Haqiqat sinmagay, garchi bukildi.***
***Bu shunchaki kubok emas, bolalar,***
***O'yinga o'zbekning ori tikildi!***

***Ha, aytgancha, ukam Ne'matullohjon,***
***Darvozani yoping – qil ham sig'masin.***
***Omad kulib, agar bo'lsak chempion –***
***Qoshni qimirlatish esdan chiqmasin!***

***Taqdirda bo'lmaydi erta yoki kech,***
***Boshida yig'latsa, oxir kuldirgay.***
***Ikki kishi kammiz, deya qo'rqmang hech –***
***Birin xalq, birini iymon to'ldirgay!***

***Vatan deb raqibni yengdingiz ko'plab,***
***Mayli, ota-ona, do'st-yorni o'ylang.***
***Endi bir iltimos, bor kuchni to'plab,***
***Murabbiylar uchun, men uchun o'ynang!***

***Birlashing – bir bo'ling, bir jon – bir nafas,***
***Hech kimni ayblamang, qilmang ohu zor.***
***Va oxirgi so'zim – siz to'p teping, bas,***
***Ortingizda buyuk O'zbekiston bor!***

**Zohidjon OLOV,**
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.**

# MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

*Keyingi sakkiz yilda har jabhada sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Shu jarayonda oliy ta'lim tizimini ham yangi sharoit va talablarga moslashtirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan "Yangi O'zbekiston" tashabbuslari doirasida oliy ta'lim sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda.*

### Taraqqiyot odimlari

Xususan, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni bilan oliy ta'lim tizimida erishilishi kerak bo'lgan marralar belgilab berildi. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini yaxshilash va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, dunyoning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi, xorijiy professor-o'qituvchilar taklif qilindi va talabalarni amaliy bilimlar bilan ta'minlashga qaratilgan dasturlar joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston universitetlari xalqaro reytinglarda qatnashishni boshladi.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan dasturlar zamonaviy talablar va bozor ehtiyojlariga moslashtirilyapti va mazkur o'quv dasturlari bevosita ish beruvchilar bilan birgalikda tuzilmoqda. Yangi yo'nalishlar, masalan, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot kabi sohalarda mutaxassislar tayyorlashga e'tibor qaratilayotir. Talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish uchun sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, oliygohlarda ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish maqsadida yangi laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etildi. Talabalar va o'qituvchilarning ilmiy ishlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularni xalqaro miqyosda nashr etishlari uchun sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, talabalar uchun yangi turarjoylar qurilmoqda, kutubxonalar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanyapti. Ular uchun sport va madaniy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Keng ko'lamli islohotlar, qo'llanayotgan chora-tadbirlar, albatta, o'z mevasini bermoqda. Birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonini shaffoflashtirish va raqamlashtirishga ahamiyat qaratilgani bois hozirgi kunda bilim darajasi yuqori yoshlar talaba bo'lmoqda. Ikkinchidan, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, almashinuv dasturlari kuchaygani tufayli talabalarning xalqaro oliygohlarda ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi. Uchinchidan, ilmiy tadqiqotlar soni va sifati oshdi, natijada O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro'si yanada mustahkamlanmoqda.

Quvonarlisi, Buyuk Britaniyada joylashgan "QS" (Quacquarelli Symonds) xalqaro reyting agentligi 2023-yil natijalariga ko'ra Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti hamda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti dunyoning "TOP – 1000" oliygohlari qatoriga qo'shildi.

Shuningdek, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi mutaxassisliklarning o'quv rejalari birin-ketin xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinmoqda. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xalqaro miqyosda yana bir katta yutuqqa erishdi. Oliygohning buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishidagi qator o'quv dasturlari nufuzli xalqaro tashkilot – "ACCA" (The Association of Chartered Certified Accountants) tomonidan rasman tan olindi.

Gap shundaki, Prezidentimizning 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 6-bandiga asosan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga buxgalteriya hisobi yo'nalishida o'quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish vazifasi yuklatilgan edi. Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida universitet tomonidan "ACCA" xalqaro tashkiloti bilan aniq reja va maqsadlarni ko'zlagan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Amaliy sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, universitetning Biznes va texnologiyalar, Boshqaruv hisobi, Moliyaviy hisob, Korporativ va tadbirkorlik huquqi, MHXS asosida moliyaviy hisobot kabi fan dasturlari "ACCA" tomonidan rasman tan olindi.

Ya'ni endi buxgalteriya mutaxassisliklari bitiruvchilari universitet diplomi bilan bir vaqtning o'zida imtihonsiz "ACCA" sertifikatlariga ham ega bo'ladi. Mazkur xalqaro darajadagi diplomlar buxgalteriya mutaxassisliklarida tahsil olgan bitiruvchilarimizning xalqaro darajada mutaxassis ekanini ta'minlaydi va ularga global mehnat bozoridagi yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Yangi O'zbekiston tashabbuslari doirasida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning kelajagi uchun muhim qadamdir. Ta'lim sifatini yaxshilash, xalqaro standartlarga moslashtirish va talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Bu bilan yurtimiz taraqqiyotining poydevori yanada mustahkamlanyapti. Albatta, bu yo'lda hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Ayni paytda oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar O'zbekistonning kelajagi yanada yorqin bo'lishiga ishonchimizni oshirmoqda.

**Sirojiddin YANGIBOYEV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining fakultet dekani, (PhD) dotsent,**
**Nuriddin JOVLIYEV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining katta o'qituvchisi (PhD).**

**"O'zbekiston – kitobxonlar yurti" shiori ostida an'anaviy V Respublika "Kitobxonlik haftaligi"ga start berildi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir X. Norboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 00.10 Topshirildi — 01.00 1 2 3 4 5 6